O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 130.122:28-7

Yulduz D. RAXIMOVA
Tayanch doktorant, Samarqand davlat chet tillari instituti, Samarqand, O‘zbekiston
Email: yraximova711@mail.ru

PhD R.Komilov taqrizi asosida

YUSUF HAMADONIY ASARLARIDA INSON TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xoja Yusuf Hamadoniyning falsafiy-irfoniy qarashlari tahlil qilinadi. Xususan, ulug‘ shayxning “Rutbat ul-hayot” asari antropologik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda insonning yaralishi, ruh va tana o‘rtasidagi munosabatlar, qalb, zikr, tafakkur, imon va islom masalalari savol-javob usulida Qur’oni karim oyatlari hamda hadislar asosida izohlanadi. Mutafakkirning inson kamoloti, nafs tarbiyasi, halol luqma, riyozat, mujohada va zikr haqidagi qarashlari insonning ma’naviy-axloqiy yuksalish omillari sifatida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: qalb, badan, zikr, insoniylik, hayvoniylik, g‘azab, nafs, shariat, islomiy farmon, imon, riyozat, mujohada.

КОНЦЕПЦИЯ ЧЕЛОВЕКА В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ЮСУФА ХАМАДАНИ

Аннотация

В данной статье анализируются философские и мистические взгляды Ходжи Юсуфа Хамадани. В частности, произведение великого шейха «Рутбат ал-Хаят» имеет значительный антропологический смысл. В нем в форме вопросов и ответов, опираясь на аяты Священного Корана и хадисы, рассматриваются вопросы сотворения человека, взаимоотношения души и тела, сердца, зикра, созерцания, веры и ислама. В статье также исследуются взгляды Хамадани на совершенство человека, воспитание нафса, дозволенное пропитание, духовные упражнения, борьбу с самим собой и поминание Бога как важные факторы морально-нравственного и духовного развития.

Ключевые слова: сердце, тело, зикр, человечность, животное начало, гнев, нафс, шариат, исламское повеление, вера, духовная дисциплина, борьба с самим собой.

THE CONCEPT OF MAN IN THE WORKS OF YUSUF HAMADANI

Annotation

This article analyzes the philosophical and mystical views of Khoja Yusuf Hamadani. In particular, the great sheikh’s work “Rutbat al-Hayat” is of considerable anthropological significance. It discusses human creation, the relationship between soul and body, the heart, dhikr, contemplation, faith, and Islam in a question-and-answer form based on verses from the Holy Qur’an and hadiths. The article also examines Hamadani’s views on human perfection, discipline of the nafs, lawful sustenance, spiritual exercise, self-struggle, and remembrance of God as important factors of moral and spiritual development.

Keywords: heart, body, dhikr, humanity, animality, anger, nafs, Sharia, Islamic command, faith, spiritual discipline, self-struggle.

Kirish. “Yetti pirning ustozi”, sohibkaromat valiy, xojagon tariqatiga tamal toshini qo‘ygan alloma, Abdulxoliq G‘ijduvoniy va Ahmad Yassaviy kabi buyuk shayxlarning ustozi sifatida e’tirof etilgan Yusuf Hamadoniy Hamadon shahrida tug‘ilib, qadimiy Turkiston hududida o‘zining falsafiy-irfoniy qarashlari bilan tarixda o‘chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkirlardan biridir. Xoja Yusuf Hamadoniy nafaqat tasavvufshunos olim, balki mashhur adib hamdir. Allomadan bizgacha “Rutbat ul-hayot”, “Kashf”, “Risolayi dar odobi tariqat”, “Risolayi fi annal-kavna musaxxarun lil inson”, “Risolayi dar axloq va munojot” kabi asarlar yozganligi haqida ma’lumotlar yetib kelgan [1, 8].

Markaziy Osiyo mutafakkirlari ma’naviy merosida inson masalasi hamisha markaziy o‘rinni egallab kelgan. Tasavvuf falsafasining yirik namoyandasi, Xojagon tariqatining asoschisi Xoja Yusuf Hamadoniy (1048–1140) qarashlarida inson ilohiy sirlarning mazhari va borliqning gultoji sifatida talqin etiladi. Hamadoniyning bizgacha yetib kelgan asarlari, xususan, “Rutbatul hayot” (“Hayot darajasi”) risolasi inson ma’naviy hayotining qonuniyatlarini o‘rganishda muhim ilmiy-falsafiy manba hisoblanadi. Mutafakkir insonni shunchaki biologik mavjudot emas, balki doimiy ruhoniy va axloqiy yuksalishga intiluvchi mukammal tuzilma sifatida tadqiq etadi. Yusuf Hamadoniy asarlarida inson talqini, eng avvalo, uning ichki dunyosi, qalbi va ruhiyati bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Olim insonning mohiyatini uning jismoniy vujudi bilan emas, balki ma’naviy darajasi bilan o‘lchaydi. “Rutbatul hayot” asarida hayotning haqiqiy darajasi g‘ofillikdan uyg‘onish va qalb pokligiga erishish orqali belgilanishi ta’kidlanadi.

Hamadoniy inson tabiatini ikki ziddiyatli kuch orqali tushuntiradi: Nafs (moddiy eshtiyoqlar): Insonni tubanlikka va dunyoviy lazzatlarga chorlovchi kuch. Ruh va Qalb (ilohiy nur): Insonni ezgulikka, ilmga va ma’naviy komillikka yetaklovchi asos. Mutafakkir falsafasida komil inson konsepsiyasi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Uning fikricha, komillikka erishish uchun inson to‘rt bosqichni bosib o‘tishi lozim: shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat. Biroq Hamadoniy tasavvufni tarkidunyochilik deb bilmaydi. U insonni jamiyatdan ajralmagan holda, halol mehnat orqali ma’naviy yuksalishga chaqiradi. Keyinchalik Bahouddin Naqshband tomonidan tizimlashtirilgan “Dast ba koru dil ba Yor” (Qoling mehnatda, qalbing Allohda bo‘lsin) shiorining fundamental asoslari aynan Yusuf Hamadoniy asarlarida ko‘rinish beradi. Hamadoniy inson hayotining mazmunini ilm va amal birligida ko‘radi. Amalsiz ilm insonni kibrga yetaklaydi, ilmsiz amal esa g‘ofillikka sabab bo‘ladi. Shuning uchun chinakam inson o‘z

ilmini o‘zgalar manfaatiga va o‘z nafsini tarbiya qilishga yo‘naltirishi shart.

Yusuf Hamadoniy asarlarida inson talqini chuqur gumanistik xarakterga ega. Mutafakkir insonni o‘z ustida tinimsiz ishlovchi, nafsini jilovlay oladigan va jamiyatga naf keltiruvchi faol shaxs sifatida ko‘radi. Uning komil inson haqidagi qarashlari bugungi kunda yoshlar ma’naviyatini shakllantirish, ularda yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Hamadoniy merosi insonning ichki erkinligi va ruhiy barkamolligi qonuniyatlarini ochib beruvchi mangu dasturilamaldir.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot markaziga olingan “Rutbat ul-hayot” (“Hayot mezoni”) asarini insonshunoslikka bag‘ishlangan qimmatli manbalardan biri, deb baholash mumkin. Asar savol-javob tarzida yozilgan bo‘lib, muallif o‘z fikrlarini ishonchli hadislar va Qur’oni karim oyatlari bilan asoslaydi. Uning antropologik ahamiyati shundaki, unda insonning butun koinot va olamlar ichida yuksak maqomga ega ekani ta’kidlanadi. Insondagi “insoniylik” belgilari bilan bir qatorda “hayvoniylik” sifatlari ham mavjudligi ko‘rsatilib, bunday sifatlarni jilovlash uchun nafsni tarbiyalash, hayotni faqat yeb-ichish va moddiy lazzatlar bilan cheklamaslikka da’vat etiladi.

Yusuf Hamadoniy fikricha, insonning tirikligi va bu dunyoda mavjudligi uning huzur-halovatga intilishi bilan bog‘liq. Biroq tiriklikning o‘zi insoniylik mezoni bo‘la olmaydi. Alloma inson hayotini faqat mol-dunyo to‘plash, yeb-ichish va lazzatlanishga sarflashni tanqid qiladi. Bu fikr Qur’oni karimdagi: “(Ey Muhammad) ularni qo‘yavering, yeb-ichib, foydalanib qolsinlar, orzu-havaslariga mashg‘ul bo‘laversinlar. Bas, yaqinda (bu qilmishlarining oqibati nima bo‘lishini) bilib olurlar” (Hijr surasi, 3-oyat), shuningdek, “Kofir bo‘lgan kimsalar esa (mana shu hayoti dunyoning o‘tkinchi lazzatlaridan) foydalanib, chorva hayvonlari yeganidek yeb-ichurlar va do‘zax ularning joylari bo‘lur” (Muhammad surasi, 12-oyat) mazmunidagi oyatlar bilan asoslanadi [1, 17]. Demak, mutafakkir inson umrining mazmunini faqat moddiy ehtiyojlarni qondirish bilan emas, balki ma’naviy kamolot bilan bog‘laydi.

Asarda Yusuf Hamadoniy insonni “fahm va aql bilan sharaflangan” mavjudot sifatida talqin qiladi hamda uning to‘rtoyoqli hayvonlar va hasharotlar darajasiga tushib qolishidan ogohlantiradi. Nafsga esa “inson vujudining hammoli va vujud ishlarini bajaruvchi ulov” deya ta’rif beradi. Darhaqiqat, nafs inson vujudining istak-xohishlarini ro‘yobga chiqaruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U badanni o‘ziga bo‘ysundirib, yeyish, ichish, uxlash, ko‘ngilxushlik qilish va dam olish kabi ehtiyojlarni ro‘yobga chiqarishga intiladi. Tasavvufiy axloq mezonlariga ko‘ra, kam yeyish, kam uxlash, riyozat chekish va kam gapirish komil insonning muhim belgilaridan sanaladi. Yusuf Hamadoniy insonning hayoti, turmush tarzi va odatlarini tartibga soluvchi mezon sifatida shariatni alohida ta’kidlaydi. Inson o‘z dini va Haq taoloning shariatiga bo‘ysunib yashasa, uning hayoti ezgulik va tartib asosida kechishini uqtiradi. Alloma shariatga “nafs va koinotning sultoni” deya yuksak baho beradi. Shu o‘rinda inson badani din omonat topshirgan bir ulov hamda shariat vazifalarini bajaruvchi hammolga qiyoslanadi.

Tahlil va natijalar. Mutafakkir bu fikrni ta’sirchan o‘xshatish orqali izohlaydi: “Hoy-u havaslarga ergashib, nafs vasvasalariga bo‘ysunib, shariatga xilof amallarni bajarish uchun badanni taomlantirgan inson ot va tuyaga yem-hashak berib, ularning kuchi bilan yo‘lto‘sarlik qiladigan qaroqchi yoki bir musulmonni nohaq o‘ldirish uchun qilichini qayragan kishiga o‘xshaydi”. Ushbu o‘xshatishda o‘z vujudini nafs buyruqlarini bajarish va shariatga zid ishlarni amalga oshirish uchun quvvatlantirgan inson ikki holatga qiyoslanadi: birinchisi - ot va tuyasini yem-hashak bilan quvvatlantirib, so‘ng yo‘lto‘sarlik qiladigan qaroqchi; ikkinchisi - bir musulmonni nohaq o‘ldirish uchun qilich qayragan kishi. Shu tariqa, Yusuf Hamadoniy insonni o‘z vujudini shariat vazifalarini ado etishga, islomiy farmonlarga bo‘ysunishga hamda yeb-ichish masalasida me’yor va halollikka rioya qilishga chaqiradi.

Tasavvufshunos olim ta’kidlashicha, insonni Alloh taologa yaqinlashtiruvchi muhim vositalardan biri zikrdir. “Solikning zikrda oxirgi nuqtaga yetishi - tili bilan birga yetti a’zosining, hatto tuklari va tirnoqlarining ham zikrda ishtirok etishidir”, - deb yozadi Yusuf Hamadoniy. Olim qalb zikrining nihoyasi qirq kun ekanini ta’kidlaydi. Buyuk alloma dunyo lazzatlari bilan zavqlanuvchi kishilarni “dunyo bilan tirik insonlar”, Haq taoloning zikri va amri bilan halovat topuvchi kishilarni esa “Mavlo bilan tirik insonlar” deb ataydi. Tili zikr bilan band bo‘lgan inson huzur-halovatga erishadi, uning badani ham, qalbi ham muhabbat bilan limmo-lim bo‘ladi. Olim qalb va zikrni daraxtga, qalb bilan tafakkurni esa daraxt va mevaga qiyoslaydi. Mutasavvuf qalb tafakkurini ochuvchi kalit zikr ekanini ta’kidlaydi [1, 59].

Yusuf Hamadoniy badan va qalbning o‘zaro munosabatlarini ham chuqur tahlil qiladi: “Badan islom uchun ishlaydi va yashaydi. Qalb esa imon uchun ishlaydi va yashaydi. Ko‘ngilning yordamisiz badan bir ish qilolmaydi, badansiz esa ko‘ngil mushohada va visolga erisha olmaydi. Badanning islomi - musulmonchiligi ko‘ngil yordamisiz, ko‘ngilning imoni esa badan ko‘magisiz ro‘yobga chiqmaydi” [1, 41]. Ushbu fikrda jismoniy va ruhiy hayotning o‘zaro bog‘liqligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Alloma boshqa bir o‘rinda qalb g‘aybni ko‘rish va idrok etishda poydevor vazifasini bajarishini, badan esa unga bo‘ysunishini ta’kidlaydi.

Yusuf Hamadoniy inson fe’l-atvoridagi g‘azab hissiga ham alohida e’tibor qaratadi. Uning fikricha, g‘azab na aqlga, na qalbga bo‘ysunadi. Asarda g‘azab illati “Iblis egallab olgan kishilar sifati” sifatida talqin qilinadi, g‘azabkor kishilar esa hayvoniy holatga qiyoslanadi. G‘azab qalbda jo‘sh urgan paytda qalbdagi nur so‘nadi, aql esa uni to‘xtatishga ojiz qoladi. Mutafakkir g‘ofil va aql-hushidan begona kishilarga shayton g‘azab olovini sochishini uqtiradi. Fikrning mazmuni Rasulullo Muhammad (s.a.v.) hayotlaridan keltirilgan rivoyat bilan mustahkamlanadi: haqiqiy kuchlilik jismoniy qudratda emas, balki g‘azab paytida o‘zini tuta bilishda namoyon bo‘ladi.

Boshqa tasavvuf olimlari singari Yusuf Hamadoniy ham inson kamoloti uchun ruhiy va jismoniy riyozat zarurligini ta’kidlaydi. Olimning “Odobi tariqat” risolasida tariqat yo‘liga kirgan har bir murid o‘z maqsadi yo‘lida amal qilishi zarur bo‘lgan to‘rtta asos ko‘rsatiladi. Bular — nafs riyozati, luqma va hirqaning halol bo‘lishi, mujohada va zikr. Ularning birinchisi bo‘lgan nafs riyozati inson ehtiyojlarini me’yorlashtirishga qaratilgan. Olim inson zarurat yuzasidan yeyishi va ichishi, ortiqcha taomlanishdan saqlanishi kerakligini uqtiradi. Shu bilan birga, u haddan tashqari ochlik muridni holdan toydirishi va uning hayotiga zarar yetkazishi mumkinligini ham qayd etadi. Nafs riyozatining muhim ko‘rinishlari sifatida uzlat va kam uxlash ko‘rsatiladi. Xilvat va uzlat ko‘ngil hamda zehnni turli yomon illatlardan muhofaza qilishi, ko‘p uxlash esa umrni zoye qilishi, tanani bo‘shashtirishi va ishtiyoqni pasaytirishi mumkin.

Ikkinchi asos - luqma va hirqa, ya’ni libosning halol yo‘l bilan topilgan bo‘lishidir. Tasavvufshunos olim ta’kidlashicha, harom luqma qalbdagi nurni so‘ndiradi, harom libos esa ibodat zavqini yo‘qotadi. Yusuf Hamadoniy har bir inson uch narsani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi lozimligini uqtiradi: hirqa, luqma va maskan. Ularning uchalasi ham halol va pok bo‘lsagina, inson hayoti go‘zallashib, ma’naviy taraqqiyot uchun imkoniyat kengayadi. Shu bilan birga, inson haromxo‘r

va fosiq kishilardan uzoq turishi kerakligi ta’kidlanadi. Solikni fosiq va ikkiyuzlamachilarning suhbati to‘g‘ri yo‘ldan adashtirishi mumkin. Halol kasb qilish va oilani halol luqma bilan ta’minlash g‘oyasi keyingi tasavvufiy an’analarda, xususan, naqshbandiylik ta’limotida ham muhim mezon sifatida davom etgan. Bahouddin Naqshbandga nisbat berilgan “Al-ibodatu asharatu ajzayin...” mazmunidagi hikmatda ibodatning katta qismi halol kasb talabiga amal qilish bilan bog‘lanadi [5, 14]. Demak, halol mehnat qilib kun ko‘rish ham mo‘min uchun ma’naviy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Halol luqma va halol kasb-kor inson qalbini poklab, xotirjamlik va huzur-halovat bag‘ishlaydi.

Uchinchi asos sifatida mujohada, ya’ni shayton, dunyo lazzati va insonni yomon yo‘lga boshlovchi nafs qutqulari bilan kurashish tilga olinadi. Inson qalbiga shayton vasvasa qilganda yoki dunyo o‘z jozibasi bilan uni yo‘ldan adashtirishga urinayotganda mujohada iroda va ma’naviy bardoshlilikni mustahkamlaydi. Zikr esa to‘rtinchi va yakuniy tamoyil sifatida ko‘rsatiladi. Yusuf Hamadoniy fikricha, inson har qancha ibodat, taqvo, riyozat va mujohada bilan mashg‘ul bo‘lmasin, Allohni zikr qilmaguncha unga haqiqat yo‘li to‘liq ochilmaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Xoja Yusuf Hamadoniy asarlarida inson masalasi ma’naviy-axloqiy kamolot, nafsni tarbiyalash, qalbni poklash va shariat mezonlariga muvofiq yashash bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. Mutafakkir insonni aql va fahm bilan sharaflangan mavjudot sifatida ko‘rar ekan, uning haqiqiy yuksalishini moddiy lazzatlardan ustun turuvchi ruhiy qadriyatlarda ko‘radi. Zikr, tafakkur, riyozat, mujohada, halol luqma va halol mehnat kabi tamoyillar insonning ichki dunyosini tartibga soluvchi muhim vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, Yusuf Hamadoniy merosi bugungi kunda ham insonning ma’naviy dunyoqarashini boyitish, qalbni yomon illatlardan xalos etish, imonni mustahkamlash hamda Haq va xalqqa ixlos bilan xizmat qilishga undovchi bunyodkor g‘oyalari bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR

1. Xoja Yusuf Hamadoniy. Hayot mezoni. Rutbat ul-hayot. – Toshkent, 2018.
2. Navro‘zova G., Nurmatova N. Yusuf Hamadoniy – yetti pirning tabarruk ustozi. – Toshkent, 2016.
3. Sadriddin Salim Buxoriy. Buyuk G‘ijduvoniylar. – Buxoro: “Buxoro”, 2006.
4. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2009.
5. Abu Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon. – Toshkent, 1993. – 14-b.